


Ўзбек
xalq ertaklari

BAXTLI HAYOT






BAXTLI HAYOT



Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g'oyalar ulug'lanadi.

Kichkintoylar o'zlari tinglagan yoki o'qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o'saveradilar.

O'ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga aylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.



MUSHUK BILAN CHUMOLI

Bir kuni chumoli don tashiyotib mushukning oldidan kelib qolibdi. U haddan ziyod semirib ketganligidan oftobda pishillab uxlab yotar ekan. Ashula aytib, uyiga ketayotgan chumoli mushukni ko‘rishi bilan jimib qolibdi-da, qadamini sekinlatibdi. Qo‘rqqanidan emas, mushukni uyg‘otmaslik uchun shunday qilibdi. Biroq yonidan chumoli o‘tayotganligini ko‘rib qolgan mushuk ko‘zlarini chalachulpa ochib qarasa, u og‘zida don olib kelayotgan ekan. Mushukning uyg‘onganligini bilgan chumoli uning oldiga yetganida donni yerga qo‘yibdi-da, sekin salom beribdi.



– Hormang, Miyov xola!

– Hali horiganimcha yo‘q, qora qiltiriq, – debdi mushuk. – Faqat juda zerikib ketdim. Kunlar shunaqangi zerikarliki.

– Ishlamasangiz zerikasiz-da, – debdi kulib chumoli. – Men mehnat qilib zerikmayman. Har kuni don-dun tashib oilam uchun mehnat qilaman.


– Eh, qanaqa yashashni bilmagan nodon chumoli. Buncha kalta-fahm bo‘lmasang. Nega endi men ishlar ekanman?! – debdi mushuk ensasi qotib. – Egam bor – ne g‘am bor. Sen sho‘rlikkina baxtsizsan. Chunki sening boradigan uying, har kuni yuvib-taraydigan, erkalaydigan egang yo‘q.

– Bu gapingiz xato, Miyov xola, – debdi chumoli ranjib. – Men siz o‘ylaganchalik baxtsiz emasman. Chunki mehnat qilishga yetadigan kuch-quvvatim, g‘ayratim bor. Shu mehnatning orqasidan topgan bir-biridan inoq va ahl do‘stlarim ham bor. Kimki mehnat qilmasa, o‘sha baxtsiz.









Mushuk o‘ylab qarasa, bahsda yengilib qoladiganga o‘xshabdi. Shuning uchun gapni boshqa yoqqa burishga harakat qilib:

– Hazillashdim-ku, chumolivoy, – debdi u. – Men ham mehnat qilaman. Sichqon ovlayman. Demak, men ham baxtliman.

– Sichqonni onda-sonda ovlaysiz-da! Har kuni mehnat qilsangiz bo‘lmaydimi? – debdi chumoli.

– Gaping to‘g‘ri, – debdi mushuk. – Men har kuni mehnat qilmayman. Chunki, birinchidan, doim qornim to‘q. Ikkinchidan, sichqonni egamdan qo‘rqqanimdan ovlayman.

– Demak, ayyor ekansiz. – debdi chumoli yerdan donni olayotib.

Terlab-pishib yo‘lida davom etar ekan o‘zicha: “Yaxshiyam egam yo‘q, bo‘lmasa mushukka o‘xshab yalqov, ayyor bo‘lib qolarkanman”, deb o‘ylabdi. Mushuk ham chumolining ortidan qarab turib: “Yaxshiyam egam bor ekan, bo‘lmasa men ham shunga o‘xshab tinim bilmas ekanman”, debdi o‘ziga o‘zi. Qissadan hissa shuki, birovlarining mehnati evaziga yashash yalqovlikka, o‘z halol mehnating evaziga yashash esa oqillikka olib boradi.


BAXTLI HAYOT

Yaqin o‘tmishda bir sehrigar bo‘lgan ekan. Uning qo‘lidan hamma ish kelar ekan. Agar u istasa tap-taqir cho‘l o‘rnida dengiz yarata olar ekan. Yalang joyda qasr paydo qilish ham uning uchun arzimagan yumush ekan. Ammo qancha buyuk sehr-jodular qilmasin, ularning hech biridan sehrigarning ko‘ngli to‘lmas ekan. Kunlarning birida u odamlarning baxt haqidagi fikrlarini bilmoqchi bo‘lib bir qishloqqa boribdi. Chunki ular sehrigarliksiz ham baxtli yashashar ekan-da! Shu xayol bilan ketayotsa, yo‘lda bir og‘ir qopni yelkalab olgan yo‘lovchini uchratib qolibdi.

– Zilday og‘irdir-a? – so‘rabdi sehrigar undan.








– Zilday bo‘lganda-chi! Rosa. – debdi yo‘lovchi.

– Istarsang, yuqingni yengillatib beraman. Ter ham to‘kmaysan, mashaqqat ham chekmaysan. Yumushing osongina bitadi, – debdi sehrGAR.

– Yo‘q, kechirasiz. Menga bunaqa ko‘makning keragi yo‘q, – debdi yuk ko‘targan yo‘lovchi uning sehr-jodudan xabari borligini sezib. SehrGAR yo‘lovchining javobidan hayron bo‘libdi.

– Axir, qop judayam og‘ir deyapsan-ku! – debdi u.



– Shunday bo‘lmasa bo‘lmaydi! – debdi yo‘lovchi. – Hamma narsa osongina bitaversa, nimadan sevinib, nimadan xursand bo‘laman?

– Gaping rost, – debdi sehrGAR. – Mana mening qo‘limdan hamma ish keladi, ammo sira quvona olmayman. Baxt nimaligini esa hecham his qilmaganman.

– Uy ham paydo qila olasanmi? – so‘rabdi yo‘lovchi uning mahoratini sinab ko‘rmoqchi bo‘lib. SehrGAR javob berish o‘rniga qo‘lini havoda yengilgina silkitgan ekan, shu onda ularning yonida mo‘risidan pag‘a-pag‘a tutun buruqsib turgan uy paydo bo‘libdi.

– Qoyil! – debdi yo‘lovchi entikib. – Ammo bunaqa uyni... o‘z qo‘ling bilan mehnat qilib qurganingga ne yetsin...







– Sen haqiqatan ham baxtlimisan? – so‘rabdi sehrigar.

– Qopni manziliga olib borsam, mendan baxtli odam bo‘lmaydi, – javob beribdi yo‘lovchi.

– Uni manziliga men eltishaqolay bo‘lmasa, – debdi sehrigar va qopini olib yelkasiga ortmoqlab olibdi. Manzil olis ekan. Ular ketaveribdilar, ketaveribdilar. Sehrigarning peshanasidan issiq ter chiqibdi.

– Hali uzoqmi? – so‘rabdi terga bota boshlagan sehrigar.

– Uzoq, – javob beribdi qopning egasi.

– Biroz dam olsak-chi, – so‘rabdi sehrigar hansirab.

– Yahshisi, yo‘ldan qolmaganimiz ma‘qul, – debdi unga javoban yo‘lovchi. – Yo‘qsa quvonchimiz tez tarqab ketadi.

Ular, nihoyat, manzilga yetib kelibdilar.



– Keldik, – debdi yo‘lovchi sehrarga. Sehrgar qopni yelkasidan tushiribdi, u horib-charchagan bo‘lsa ham, yuzida tabassum o‘ynab, yerga yotib olibdi.

– Ha! – debdi sehrgar peshanasidagi marjon-marjon terlarini artar ekan. – Baxt nimaligini angladim, buning uchun esa senga katta rahmat, birodar.

– Beminnat yordaming uchun senga ham tashakkur! – debdi yo‘lovchi.

Sehrgar o‘sha kundan boshlab jodu ishlarini butunlay yig‘ishtirib, o‘z qo‘li, o‘z mehnati bilan uy quradigan quruvchi bo‘libdi. Oilali bo‘lib, har kuni tongda quyosh chiqmasidan burun bog‘ga yo‘l oladigan, dalalarga suv taraydigan bo‘libdi. Aytishlaricha, u sehrgarlikni butunlay unutib, baxtli hayot kechirgan ekan.



OLTIN TARVUZ


Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda bir kambag‘al dehqon bor ekan. Uning atigi bir tanobgina yeri bor ekan. Dehqon shu yerda kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilib kun ko‘rar ekan. Bahor kunlarining birida dehqon yerini hayday boshlabdi. Ikki marta haydab yaqinidagi katta soyning bo‘yida salqinlab o‘tirganida, osmonda uchib ketayotgan bir laylak uning oldiga qulab tushibdi. Qarasa, laylakning qanoti siniq emish. Dehqon uni darrov uyga olib borib, siniq qanotini bog‘lab bir qancha vaqt uni davolabdi. Kunlar o‘tib, laylak sog‘ayib uchib ketibdi.



Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/21-130

Kunlardan bir kun dehqon yeriga chigit ekib yursa, bir laylak pastlab uchib o'tibdi. Dehqon esa chigitni ekaveribdi. Laylak yana pastlab o'tib, shu o'tishida dehqonning yeriga tarvuz urug'larini tashlab ketibdi. Bir necha kundan keyin chigit bilan baravar tarvuz ham unib chiqibdi. O'z yerida tarvuz ham ko'karayotganligini ko'rgan dehqon unga tegmay, yerni vaqtida o'tab, sug'orib, chopib yuraveribdi. Shunday qilib, hosilni yig'adigan payt ham kelibdi. Dehqon tarvuzdan uchtasini uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar juda katta ekan. Dehqon o'zining yaqin qarindoshlarini va oshna-og'aynilarini mehmonga chaqirib tarvuzlardan birini so'ymoqchi bo'libdi.









Tarvuzga pichoq ursa, pichoq sira botmas emish. Uni qo‘yib ikkinchisini so‘ymoqchi bo‘libdi, unga ham pichoq o‘tmabdi, uchinchisi ham shunday bo‘libdi. Bu holatdan dehqon ham, mehmonlar ham hayron bo‘lishibdi. Uni yerga bir urib yorib qarasalar, ichi to‘la tilla emish. Shoshib qolgan dehqon tarvuzning ikkitasini ham yorib ko‘ribdi. Ularning ichi ham tilla emish. Dehqon sevinib ketib, hammasini mehmonlarga ulashibdi, ular ham xursand bo‘lib, uy-uylariga tarqabdilar. Uch tup tarvuzning har biri o‘ntadan tarvuz solgan ekan. Dehqon qolgan tarvuzlarni ham yig‘ib olibdi. Shunday qilib kambag‘al dehqon juda boyib ketibdi. Uning bir boy qo‘shnisi bor ekan. U bir kuni dehqondan: „Sen qanday qilib boyiding?“, deb so‘rabdi.



Dehqon bo'lgan voqeani aytibdi: „Qo'shni, mening yerimni o'zingiz bilasiz. Erta bahordan yerni haydashga kirishdim. Bir kun charchab, soy bo'yida salqinlab o'tirsam, osmonda uchib ketayotgan bir laylak yiqilib tushdi. Qarasam, bir qanoti singan ekan. Rahmim kelib, uni ko'tarib uyga olib keldim. Qanotini bog'lab, do-ri-darmon bilan parvarish qildim, boqdim. Laylak bir necha kundan keyin butunlay sog'ayib uchib ketdi. Kunlardan bir kun yerga chigit ekib yursam, haligi laylak tepamdan uchib o'tdi. Beparvo ishimni qilaverdim. Birozdan keyin laylak orqasiga qaytdi. Qaytishda pastlab uchib yerga tarvuz urug'larini tashlab o'tdi. U urug'lar yerdan unib chiqdi. Uni g'o'zalarim bilan baravar parvarish qilaverdim. Tarvuzlar yetilgach, ularni so'ysam, ichidan tilla chiqdi. Shunday qilib boyib ketdim“, debdi.



Buni eshitgan boy: „Zora men ham shunday oltinlarni qo‘lga kiritsam“, deb soyga borib turibdi. Bir vaqt boyning ko‘zi osmonda uchib ketayotgan laylakka tushibdi. Laylak pastdan uchmagach, poylab turib uning oyog‘iga tayoq otibdi. Laylakning oyog‘i sinib, ucholmay qolibdi. Boy darrov uni tutib, uyiga olib kelibdi va oyog‘ining singan joyini bog‘lab, parvarish qilibdi. Bir necha kundan keyin laylakning oyog‘i tuzalib uchib ketibdi. Boy esa har kuni dalaga chiqib, laylakni kutaveribdi. Kunlarning birida u boyning tepasidan o‘taturib ikki dona urug‘ tashlab ketibdi. Urug‘ kunlar o‘tib, ko‘kari chiqib tarvuz solibdi. Tarvuz pishishi bilan boy dehqon hamma qarindosh-urug‘larini mehmonga chaqiribdi. Boy tarvuzga pichoq urgan zamon ichidan katta-katta qovoqarilar chiqib, o‘tirganlarni taylay boshlabdi. Boy turasolib ularni haydamoqchi bo‘lganda, arilar uni boshi demay, yuzi demay chaqib tashlayveribdi. Boyning kallasi, burni, lablari shishib ketibdi. Ari zahriga chidolmagan boy o‘zini soyga tashlab cho‘kib ketibdi. Kambag‘al dehqon halollik bilan murodiga yetibdi, boy esa o‘z qilmishiga yarasha jazosini olibdi.



82(50')
X 22

Baxtli hayot / [Matn]: ertak. – Toshkent:
„Ensiklopediya“ nashriyoti MChJ, 2022 y. – 24 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)
KBK 82(50')

RASSOM:

SHOHRUX TOSHTURDIYEV

Ўzbek xalq ertaklari

„Ensiklopediya“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir *Sunnat Xo'jahmedov*
Badiiy muharrir *Shohrux Toshturdiyev*
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Bosishga ruxsat etildi 25.10.2022. Bichimi 84×108¹/₁₆.
„Times New Roman“ garniturası. 16 kegl.
Hisob-nashriyot tabog'i 1,05.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 825-22.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi. 160.



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya_nashriyoti_MU2021



Ensiklopediya_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591